

SO'NGI ASHTARXONIY HUKUMDORI ABULFAYZXON

*Oblokulova Yulduza Mustafokulovna**Oriental Universiteti,**Tarix yo'nalishi, 1-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buxoro xonligining so'nggi Ashtarxoniylar hukmdori Abulfayzxon davridagi siyosiy, ijtimoiy va harbiy jarayonlar tahlil qilingan. Xonlikda yuzaga kelgan ichki nizolar, markaziy hokimiyatning zaiflashuvi, Nodirshohning Movarounnahrda yurishlari hamda mang'itlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishiga olib kelgan omillar tarixiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, Abulfayzxon hukmronligi davrida Buxoro xonligining inqirozga yuz tutish sabablari va oqibatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Abulfayzxon, Ashtarxoniylar, Buxoro xonligi, Nodirshoh, Mang'itlar sulolasi, Muhammad Rahimbiy, Hakimbiy otaliq, siyosiy inqiroz, Movarounnahr, XVIII asr.

Abstrakt (Abstract): This article analyzes the political, social, and military developments during the reign of Abulfayz Khan, the last ruler of the Ashtarkhanid dynasty in the Bukhara Khanate. Based on historical sources, it examines internal conflicts, the weakening of central authority, Nader Shah's campaigns in Transoxiana, and the factors that led to the rise of the Manghit dynasty. The study also reveals the main causes and consequences of the decline of the Bukhara Khanate during the reign of Abulfayz Khan.

Keywords: Abulfayz Khan, Ashtarkhanid Dynasty, Bukhara Khanate, Nader Shah, Manghit Dynasty, Muhammad Rahim Bi, Hakim Bi Ataliq, political crisis, Transoxiana, 18th century.

KIRISH.

XVIII asr o'rtalarida Buxoro xonligida siyosiy hayot past patriarxal feodal munosabati qabilalararo nizolar V.V.Bartold bu inqiroziy vaziyat XVIII asrda barcha musulmon mamlakatlarda tahdid bo'lgan deydi Muhammadvafoi Karimnagi "To'hfati-xoni" nusxasini tahlil qilganda. Buxoroda og'ir vaziyatdan foydalanib Eron afshar shohi (1736-1747) Nodirshoh o'g'li Rizoqulni egallashga yubordi. Bu davr uchun 29-ta qo'lyozma nusxasi Sank-Peterburgda Qozon, Toshkent, Madina Dushanbe va boshqa mamlakatlarda saqlanmoqda. 1996 yil 14-sentyabr Buxoroda Islom Karimov Buxoroni Buxoroi sharif deb atadi. Salmoniy Kashko'li ham shunday deb atagan. "Tuhfati-Xoni" asari Buxoroda Mang'itlilar sulolasining hukmronligi haqidagi birinchi va eng qadimgi tarixiy manba hisoblanadi. Bu asar ikki muallif tomonidan yozilgan degan fikrga qo'shilishadi. 1722-1769 yillardagi voqealarni Muhammadvafon Karipnagi boshchiligidagi, 1769-1782 yillardagi voqealarni esa Niyozqulibek Eshonning o'g'li Odnibek yozgan. Abulfayzxon 1131 hijriy \1718-1719

milodiy yilda podshoh bo'ldi. Boshqa manbada 1711-1747 yil podshoh bo'lgan deyiladi.

ASOSIY QISMLAR.

Dastlab viloyatlar barqaror edi. U eski dastur asosida davlatni boshqargan. Boshtortganlarni qilichdan o'tkazgan. Butun Turkiston mamlakatiga korrupsiya avj olgan. Uning podsholigini Hakimbiy otaliq boshqarardi. Movarounnahr fuqarolariga soliqlar ko'pligidan jabr sitam ko'p ko'rardi. Shu davrda Nodirshoh turkman afshon Eron viloyatini sulton Huseynshohdan oldi. Iroq, Ajam, Xuroson, Hindiston va Qobulni o'z tasarufida o'tkazdi. 1739 isoviy yili o'g'li Rizoqulni mirzo Tahmasga vakil qilib Boboxon bilan birga Movarounnahrni egallash uchun Termiz guzaridan o'tib Qarshini qamal qildi. Ko'p amirlar sardorlarni qatl etib obro'si to'kdi va ayshu ishrat, qiz-juvonlar bilan musharat qildi. Nodirshoh 1742-1743 yillarda Jayhundan o'tib Buxoroga tahdid qildi va maktub yubordi. Muhammad Kozimning "Nodir olamiga maktub" va Muhammadvafo Karmanagiyning "Tuhfat ul xoniy yo Rahimxoniy" tarixida to Nodirshoh egallagancha batafsil ma'lumot berilgan. Rizoquli Andxuy hukumdori Alimardonna bostirishga yuborgan bo'lsa ham 1736-1737 yillarda Taxmas qizilboshi bilan Balxni egallab 12 ming qo'shin bilan Qarshini qamal qildi. Rizoqul Andxuy, Shibirg'on, shaharlar onasi Balxni egalladi va ashtarxon Abulhasanxon taslim bo'ldi. Qabila boshlig'i va otaliq Saidxon qarshi kurashgan Rizoqul g'alaba qilgan. Abul Hasanni otasi oldida yubordi. To'hfa sifatida Nodirshoh 12 ming oltin 300 to'n egar jabdug' bilan taqdirlanadi.

Abulfayzxon Qarshida 15 kun urushdi natija bo'lmadi. Doniyor Rizoqul bilan shartnoma imzoladi. Nodirshoh Jorjo'yda edi. Muhammad Hakimbiy otaliq o'g'li Rahimbiyni Nodirshoh xizmatiga yubordi. Buxoro tinchidi endi Abulfayzxon kelib tobe'ligini bildirsin boshqarish senga o'tadi dedi. Hakimbiy borib aytdi, ammo Abulfayzxon bormadi. Bu xabar Nodirshohga yetdi. Huzor hokimi Bobobek yordam berdi lekin negadir 3 ming askar bilan Eron tomon o'tib ketdi. Bundan keyin Hakimbiy Abulfayzxondan yordam so'ragan. Samarqanddan Odinaqulbiy, Miyonqoldan G'aybullobiy, turkmanlardan Zuhurqulbiy yordamga kelgan, ammo Abulfayzxon mag'lubiyatga uchragan. Buxoro qo'shini qizilboshilardan to'rt barabar katta bo'lgan, lekin Eron qo'shini yevropacha yangi qurol asliha, o'q dori va 20 ming askar to'plar bo'lgan. Abulfayzxon Elbarsxon Xiva xonidan va qaraqalpoqlar va qazoqlardan yordam so'radi. Firdavs ul-iqbolda Elbarsxon ming kishilik qo'shin yuborgan deyiladi. Karmanaging kitobida oltmish ming qoshin yuborgan deyishadi. Bu xabarni eshtib Rizoqulixon sulh tuzib otasi oldiga qaytadi. Bu haqida Maryam Maxdixonning Nodiriy tarixi astrobodlik batafsil bayon qilgan. 1940 yil Nodirshoh Jorjo'yda bo'lganda Muhammad Hakimbiy o'g'li Rahimbiy va onasini qimmatbaho sovg'alar bilan yuboradi. Ularni bir muddat yaxshi kutib olib qarorgohida saqlanadi. Elbarsxondan kelgan katta qo'shinni eshtib Rizoqulixon chekindi deyishadi. Elbarsxon bundan foydalanib Buxoroga hujum qilmoqchi edi, ammo Qarshi Buxoro

foydasiga hal bo'lgani uchun qoldirildi. Bundan ko'rinib turibdiki tarixda hukumdorning kuchsizligini bilgan har qanday hukumdor o'z manfaatiga ish ko'radi. Islom Karimov takidlaganlaridek har bir ish bitim bilan bog'lanish lozim, shunda hech qanday manfaatdorlik o'zgalar foydasida hal bo'lmaydi. Abulfayzxon Nodirshoh Peshovardda bo'lganida sovg'a bilan maktub yubordi. Unga yozishicha men bir burchakda yolg'iz o'tiribman sizdek shoh qachon kelsangiz mehmon qilaman siz uchun eshigim ochiq deydi. Bu bilan Abulfayzxon yolg'iz uni qo'llaydigan kishisi yuqligini tushinish mumkin. Nodirshoh javoban Elbarsxonga jazo berib, siz mezbonlik qilasiz sizning mulku molingizga diqqatimizni qaratmaganmiz deydi. Nodirshoh niyatidan qaytmadi 1740 yil 3 kunda Amudaryodan ko'priksolib 1 kunlik Buxoroga yetadigan yo'l qolgandi, Qorako'lda yetib keldi. Muhammad Hakimbiy va Rahimbiy yordam berdi. Abulfayzxon Hakimbiyni chaqirib elchi bo'lib borishini buyurdi. Abulfayzxon Mir Arab madrasasi atrofini posbonlar bilan o'rab xalqni qo'zg'atdi. Eroniylar bilan qarshi urushtirmoqchi bo'ldi. Ammo Hakimbiy bormadi. Noiloj taslim bo'lishi kerak.

Ikki mulozamatlar biri Tolli Poch darvozasidan, biri Namozgoh darvozasi bilan chiqib Nodirshoh oldiga boradi. Ular bilan birga Muhammad Aminbek Hisor hokimi, Olimbek Kenagas –Shahrisabz hokimi, Doniyolbiy Yoqubiy- Kobodiyon hokimi, G'aybullobiy Bahrin –Xatirchi, Abdusattorbiy- Dabusiylar qal'asi, Tog'aymurot Barqut-Nuroto hokimlariga turli lavozimlar berildi va 2 ming eshak arava bug'doy berib bazi manbalarda 200 ming eshak deyilgan viloyatlardan ozuqa solig'i uchun yetkazsinlar. Viloyatlardan 10 ming lashkar yig'ib Rahimxonni boshliq qilib berishni talab qildi va bajarildi. Abulfayzxon ikki qizini birini Nodirshohga birini ukasi (boshqa manbalarda jiyani) Ali Qlichxonga nikohga berdi. 25 kun Chor Bakrda to'y berdi xalqni azob uqubatda dag'dag'a qildi va Xivaga bordi. Rizoqul bilan Rahimxonni Mashhadga yubordi. Abulfayzxonni 12 ming askar ikki tamonidan saf tortib Nodirshoh oldiga olib boradi. Mulla Olim Abulfayzshoh deb ataldi. Xon shoh saroyida 18 kun qoladi. Bir qizi shoh ikkinchi qizi Odilshoh Ibrohim jiyaniga nikohlangan. Buxoro Abulfayzxoniga 200 mg eshak bug'doy yem xashak va naqd pul 10 mg otliq askar ajratib bergan. Aloqasi Hakimbiy bilan yaxshi edi unga ishongan. Uning birodari Doniyolbiyni Karmana hokimi etib tayinlangan. Davlatning yuqori mansabdori Hakimbiy Abulfayzxon unga qaram bo'lib qolgan. Nodirshoh 12 mg kishini oq uyli ya'ni qarindoshlarini ko'chirib boshqalarni kuzatib mustahkamlash uchun kerak bo'lgan deydi. Mashhadga qalmaq sardori Rahimquli vafot etgach, Muhammad Rahimbiy sardor bo'lgan. Nodirshoh Buxoro xonligi Markaziy hokimiyati susayib viloyat hokimlari nufuzini pasaytirish uchun aslzodalar emas amaldorlar oila a'zolarining bir qismini Eronga ko'chirib Buxoroni nazorat qilgan. Elbarsxonga maktub yubordi. Nodirshoh Hindistonda bo'lganida Rizoquliga yovmut qabilasiga hujum qilgan Abulfayzxon maktub yuborgan 3 ming yovmut Chorjo'yga hujum qilgan askarlardan xabar topib ularni yakson qilgan. ikkita Abulfayzxon elchisi

maktub jo'natdi. Agar mehmon bo'lib podsholigimizdan bahramand bo'ling, aks holda baxtsiz mamlakatingizni otlarimiz to'pog'i bilan toptab tashlaydi. Elbarsxon g'azabi kelib elchini qatl etildi. Nodirshoh Amudaryoning ikkinchi tomonidan Xorazmga yurish qilib Elbarsxonni qatl etdi. Abulfayzxon ichki nizoni bartaraf etolmadi va qaramlikka tushdi. To'ronda Nodirshoh mustahkamlash va egalashga Abulfayzxondan foydalandi. Nodirshoh kelishidan to'rt yil keyin 1753 yil Muhammad Hakimbiy otaliq vafot etdi va Mozor darvozasidan tashqarida Imom Abu Bakr Tarxon mozorida dafn etdilar. Buxoroga soliqlar ko'paydi. Qobulbiy Kenagas Shahrisabzda Ibodullo Miyonqolda isyon qildi. 1745 yil guli surx bayrami vaqtida Naqshband mozorida kelgan odamlarni talab asirga oldi. Abulfayzxon Nodirshohdan yordam so'radi. Muhammad Rahimxondan salom yetkazib yubordi va Rahimxonni otaliqga tayinladi. Otasi qarorgohi G'ozibodda yubordi. Uni ko'rish uchun birodarlari Hirotqulsabiki va Qomishtibiy Nasaf va shulluk boshlig'i va ko'p mang'it amirlariyu ellari va fuqarolar noyob narsalar bilan kelib Muhammad Rahimbiyni ko'rib ketar edi. Bir necha kishi Abulfayzxonga mang'itilar to'planayapti fitna uyushtiradi deydi. Movarounahrda xon zaifligida Hokimbiy tinchlikni saqlashga harakat qilgan odamlar ishongan olamon o'sha kun ko'p vidolashishga chiqdi. Nodirdevonbegi Tog'ay hovuzining chetida dafn qilindi. Abulfayzxon tongdan shomgacha va shomdan tongacha quvonch va baxt qadahini ko'tarib bu paytda ham Buxoroni qo'lga olmadi. Abulfayzxon tarafdorlarini bir necha bor kelib Muhammad Rahimxonni davlatga fitna uyushtirganini aytib ogohlantirdilar. Qo'qon xoniga maktub yubordi yordam berman dedi. Rozilik nomasini yubordi Miyonqolda lashkarlari kelib biron ish qilmadi yana qaytib ketdi. Abulfayzxon elchi yuborib Nodirshohga Muhammad Rahimxondan norozi ekanligini aytdi. Husaynxon va Qilichxonni yubordi Ibodullo xitoy Qobulbiy Kenagas urushdi. Muhammad Rahimbiy urushib Jizzaxga quvdi Toshkentga qochdi. Shahrisabzga oilasi bilan qochiyotganda Qobulbiy ushlab Ibodullo xitoyi qatl etdi. Muhammad Rahimbiy Qobulbiy kenagasni shahrisabz qo'zg'olonini ham tinchitib Buxoroga qaytdi. Nodirshoh maktub jo'natdi Hasanxon va Behbudxon Buxoroga qolsin, Rahimbiy bilan Qilichxon shoh oldiga borsin. Ziyofatga borib Nodirshoh Rahimxonni erkalab navozish qilib Abulfayzxon davlatni idora qila olmayapti deydi. Haqiqiy farzandini o'tkazib xutba va sikka urib nomiga davlatni boshqarish lozim va Muhammad Rahimxon ixtiyoriga zabt etish ishlarini qo'ying dedi. Barcha sukut qildi va Muhammad Rahimxon "Chingizxondan to Shayboniylarigacha ravnaq topib keyin tanazzulga uchrab Movarounahr mustaqil ajralib chiqdi. Hozir ham tanazzulda yangi hukumat tashkil qilsak mikan" Rahimxon ixtiyorida zabt etish ishlari bo'lsin dedi. Nodirshoh Xo'ja Jo'ybor buni mashvarat qilib saroyi Abulfayzxon tark etsin dedi. Ahli ayollarini Jo'yborga yuborib Abulfayzxon tirikligida farzandiga taxtni bersin va Makkayu Madinaga hajga borishini Namozoboddan Muhammadqosim Jo'yboriy Abulfayzxonga bu xabarni yetkazdi. 1160 hijriy \1747 isoviy yil Abul Mo'minxon

ibn Abulfayzxonni taxtga o'tkazdi. Hasanxon va Behbudxon Samarqanddan kelib bu Nodirshoh roziligi bilan bo'lganidan xabar topib rozi bo'ldi ularni yana Eronga chaqirib oldi. Nodirxon ukasi Alixon Buxoro saltanati tolibi (boshqa manbalarda Movarounnahrni hukumdor bo'lish istagida) bo'lgani uchun Abulfayzxonni taxtdan tushishiga norozi bo'lib lashkar tayorlayotgan edi. Muhammad Rahimxon shahar atrofini egalladi Aliquli bilan ko'p uzoq urushdi shahar aholisi tang ahvolda qoldi. Nodirshoh o'limi haqida xabar keldi. Ukasi Eronga qaytdi. Lekin amiru ulamolarga Abulfayzxonni joyiga o'tkazsin dedi. Ammo Hisor amiri Muhammad Aminbiy, Olimbiy Kenagas, Tog'aymurod Barqutiylar, Muhammad Xo'ja Naqib, Muhammadxoja Yaqub kenagas xabarni eshtib mashvarat qilib Abulfayzxonni Eron shohligiga yuborsak mashvarat qilolmaydi, chunki Nodirshoh o'lgan, tirik yursa xalqqa tashvish keltiradi, o'ldirsak qizilboshi askarlari shahar atrofidan chiqib ketadi deydi bunga nochorligidan Muhammad Rahimbiy rozi bo'ladi va uni Mir Arab madrasasida o'ldirtirdi. Xon 12 yoshida taxtga o'tirib 35 yil (boshqa manbada 37 yil berilgan) podshoh bo'lib 49 yoshida shahid bo'ldi. Muhammad Rahimbiy Hasanxon va Behbudxon maktub jo'natib. Tezroq borib Eron hokimiyatni qo'llarizga olinglar o'zbek xonlari qo'lga poymol bo'lmasin, evaziga Amudaryodan sog' salomat o'taylik deb sulh tuzdilar va Rahimbiy Muhammad Aminbiyga o'z viloyatiga sog' salomat o'tishiga buyurdi va o'tkazdi. 1747 yil Behbudxon va Hasanxon qizilboshlilar Lazgi, usmonli turklar va afg'onlar 30 ta to'p bilan Movarounnahrning Toshkent, Xo'jand, O'tror, Xorazm va Turkistonni Eronga bo'ysindirildi va aholining bir qismini Xurosonga ko'chirildi. 1747 yil 9-iyulda Rahimxon Buxoroda Abulfayzxonni taxtdan ag'darib Qalandarxon ark bog'ida qamab 12 yoshli Abulmo'minni xon deb e'lon qildi. Boshqa manbada 1743-1744 yil Muhammad Rahimxon Abdulmo'min qo'yib niqob qildi. Bir yil o'tib uni Rahimbiy qiziga uylantirgan edi. Qizi qutqusi bilan Abulmo'minni o'ldirdi. Abulfayzxon beshikdagi o'g'li Ubaydulloxonni kenja farzandini o'tkazdi. Akasini vorisi tayinladi. Ko'p o'tmay uni ham yuqotib mustaqil hokim bo'ldi. Abulfayzxon o'limidan keyin 11-12 yil podsho bo'ldi. 1743-1744 yil 9-yoshli (boshqa manblarda 12 yoshli va yili agar 1747 bo'lsa bu hisob to'g'ri bo'ladi) Abdulmo'min o'tkazdi. Qizilboshi amiri Rahimbiydan g'azablanib Buxoroni qamal qildi. Quddusda Nodirshohni jiyani Aliqulixon o'ldirdi. Buxoroda Abulfayzxon Mashhadda Nodirshoh bir kechada yo'q qilgan. Rahimbiy qizini Abulmo'minga berib o'zi mustaqil hokim bo'lgan. 1746 yil Mir Arab madrasasida Rahimbiy Abulfayzxonni o'ldirgan. Abulfayzxon o'limi haqida baytlar bitilgan. 49 yil hukumronlik qilishi begunoh shaxs dunyodan g'oyib bo'ldi. Aliquli Nodirshohni Mashhadda o'ldirgani haqida yozgan. Mir Arab madrasasida bir lashkari tamonidan bir hujraga o'ldirgan deydi Sadridin Ayniy.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda Abulfayzxon o'z davrida yosh bo'lsada davlatni uzoq boshqara olgan, ammo 30-yillarda ichki nizo hududlarning mustaqillikka erishib yashashi natijasida xonning ayshu ishratga berilishi va

Nodirshohning bostirib kelib Abulfayzxondan foydalanganligi Hakimbiy keyin oq uyda Rahimbiy o'tganligi uchun u ham yolg'iz qo'yib fitnalar uyushtirib yakkalanib qolganligi uchun Abulfayzxon davlati inqirozga yuz tutdi. Necha asrlik Ashtarxoniylar davlati o'rnida Mang'itiiylar davlati yuzaga keldi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Muhammadvafoi Karmanagi "To'hfati-xoni" nusxaoluvchi Jamshed Jo'razoda va Nurullo G'iyosov. Xo'jand Nuri marifat 2017 yil.
2. Mirza Abdulazim Somiy "Mang'it sulolalari tarixi yoki Buxoro xonligining inqirozi". 1962-yil, Moskva. 2014 Toshkent nashr
3. Mirza Salimiy Kashko'li "Tavorixi muttaqadimin va muttaaxirin". Toshkent 2017 yil.
4. A.Z. Vamberi "Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi". Toshkent 2019 yil.
5. Sadridin Ayniy asarlari "Buxoro amirligi tarixi" 2018-2022 yil Toshkent.
6. Akbar Zamonov ilmiy tadqiqotlar va maqolalari. 2014-2017 yil Toshkent
7. Mirza Salimbek va asari o' "Tarixi salimiy" Shodmon Vohidov, Farziya Ansorova. Panjakent 2024 yil.